

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH DAVRIDAGI MOLIYAVIY MUAMMOLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398441>

Namozov Olim Botirovich

TDIU dotsenti, Ph.D

Alixanov Pahlavon Shuhrat o‘g‘li

TDIU talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda mamlakatlarning yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi moliyaviy qiyinchiliklar hamda muammolar, bundan tashqari ushbu yo‘lda mamlakatlar qanday strategiyani qo‘llashlari zarurligi haqida ma’lumotlar berilgan. Davlatlar yashil iqtisodiyotga kamroq muammo va harajatlar bilan o‘tishi uchun qaysi sohalarni qisqartirishi va qaysi sohalarga kattaroq imkoniyatlar yaratishi kerakligi haqida taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, strategiya, kutilayotgan natija, moliyaviy muammolar, kamchilik va ustunliklar, harajat va daromadlar, kutilmagan holatlar, mavjud shart-sharoitlar, hukumat va aholi kelishuvi.

Ma’lumki, barcha davlatlar singari mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun keng ko‘lamli chora-tadbirlar olib borilmoqda. Bu esa yildan yilga o‘z samarasini bermogda. Jumladan, davlatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori qabul qilindi [1]. Ushbu qarorni asosiy mazmuni shundan iboratki, yashil iqtisodiyotga jadal sur’atda o‘tish jarayonini takomillashtirish yuzasidan belgilab olingan turli maqsad va vazifalarni amalga oshirish, kelgusi yillarda yuqori sifat hamda eng rivojlangan texnologiyalarni yashil iqtisodiyot uchun qo‘llash nazarda tutilgan.

Yurtimizda 2019-yil “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiyada quyidagilar asosiy vazifa qilib belgilab olindi:

texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish;

davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;

ta‘limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta‘sirini yumshatish choralarini ko‘rish;

“yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash [2].

Kutilganidek, ushbu strategiya 2022-2023- yillarda o‘zini mutloq oqlaganini aytish mumkin. Yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha O‘zbekiston nafaqat O‘rta osiyoda balki jahonda ham o‘z o‘rnini yuqoriga ko‘tara oldi.

Aytish mumkinki, yashil iqtisodiyotga o‘tishning dastlabki bosqichlari moliyaviy jihatdan eng rivojlangan davlatlarni ham qiynab qo‘yadi. Metallurgiya, tog‘-kon sanoati bundan tashqari juda ko‘plab korxonalar va tashkilotlar bu jarayonga moslasha olmasliklari, shu tufayli mamlakat iqtisodiyoti orqaga siljishini ham kuzatish mumkin. Ammo yo‘qotishlarsiz hech qanday natijaga erishib bo‘lmasligini unutmashlik joiz. Tabiat bizni topilmas boyligimizdir, ushbu ne‘matni asrab-avaylash har birimizni burchimiz. Bu yo‘lda har qancha xarajat va vaqtni yo‘qotsak arziydi [3].

**O‘zbekiston Respublikasida 2016-2022 yillar oralig‘ida atmosferaga
chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (ming tonna) [4]**

Hududlar	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2021 y.	2022 y.
O‘zbekiston Respublikasi	1,008.2	853.5	883.7	952.8	924.4	908.7	908.7	874
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	30.6	37.7	34.0	37.2	28.9	31.4	31.4	21
Andijon	36.7	15.8	15.9	14.3	11.5	4.9	4.9	17
Buxoro	58.5	63.8	74.8	69.1	37.1	44.7	44.7	36
Jizzax	63.4	5.2	11.8	4.3	3.4	2.9	2.9	27
Qashqadaryo	167.9	165.7	152.2	140.4	128.1	132.3	132.3	116
Navoiy	57.4	44.1	49.9	43.6	48.4	68.6	68.6	42
Namangan	15.8	15.9	15.2	15.8	15.0	23.9	23.9	7
Samarqand	51.6	37.2	52.1	44.2	52.7	39.4	39.4	39
Surxondaryo	3.2	3.2	5.1	6.9	6.5	7.1	7.1	7
Sirdaryo	68.9	59.6	60.5	47.8	71.8	45.7	45.7	49
Toshkent	318.7	302.9	336.6	397.9	430.0	425.5	425.5	438
Farg‘ona	103.2	60.1	53.2	49.6	50.5	46.5	46.5	49
Xorazm	5.2	9.2	7.1	7.2	6.8	7.2	7.2	5

Toshkent Sh	27.1	33.1	15.3	74.5	33.7	28.6	28.6	21
-------------	------	------	------	------	------	------	------	----

Ushbu jadvalda ko‘rinib turibdiki, respublikamizda yashil iqtisodiyotga o‘tish ekologiyani asrashga ulkan ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Yildan yilga yurtimizda atmosferani zararli moddalar bilan ifloslantirish tushib bormoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, har qanday rivojlanish vaqt va mehnat talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu yo‘lda harakat qilmoqda va ulkan zafarlarga erishmoqda. Kelgusi yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish yana ham samarali ekanligi, ushbu yo‘ldagi qiyinchiliklar bari ortta qolishi hammamizni quvontiradi. Hukumat hamda aholi bir dam bo‘lsa hech qanday qiyinchilik, hamda ortiqcha sarf-harajatlarsiz marra bizniki bo‘lishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 02.12.2022 dagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.

2. Kun.uz internet web-sayti – “O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishining asosiy vazifalari” maqolasi.

3. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi – “Yashil iqtisodiyotga o‘tish kontseptsiyasidan ko‘zlangan maqsadlar” maqola 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi – stat.uz web-sayti.

5. O‘zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 29.09.2023 yildagi 514-sonli “Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.

6. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi – “Yashil iqtisodiyotga o‘tish kontseptsiyasidan ko‘zlangan maqsadlar” maqola 2020.